

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “OKEANNI YORIB SUZADI KEMA” SHE’RIDA VATAN VA INSON TAQDIRI FALSAFASI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: XX asr o‘zbek she’riyatida inson ruhiyatini, tarixiy sinovlarini va Vatan tushunchasini yangi badiiy uslubda yoritib bergan namoyondalar talaygina. Bu davr adabiy jarayonida shaxs va jamiyat, inson va makon, xotira va taqdir mavzulari she’riyatning markazida edi. Ayniqsa bu davrga kelib Vatan tushunchasi geografik makon ma’nosidan yuqoriroq talqin qilish bosqichiga o‘tib, ma’naviy va ruhiy hodisa sifatida e’tirof etila boshlandi. Shoirlar uchun Vatan bu tug‘ilgan joyning nomi yoki xaritada o‘rni emas, balki insonning ichki olamini shakllantiruvchi, uning borlig‘iga ma’no jo etib, to‘ldiruvchi muqaddas qadriyatdir. Ana shunday davr falsafiy-ruhiy yo‘nalishi bilan hamohang tarzda ijod faoliyatini olib borgan ijodkorlar qatorida Aleksandr Arkadevich Faynberg alohida o‘rin tutadi. Uning she’riyati o‘zining samimiyligi, tasvirlanayotgan obrazlarning soddaligi va shu soddalik zamirida yotgan teran fikr-mulohaza bilan farqlidir. Faynberg ijodiyotida inson taqdiri, bolalik xotiralari, ota-ona siymosi, sadoqat, muhabbat va eng avvalo Vatan tuyg‘usi yetakchi mavzulardan biri hisoblanadi. Shoirning hayotda orttirgan tajribasi, turli davrlarda yashab, ularning ruhini to‘laqonli ko‘nglidan o‘tkazgani, boshidan kechirgan barcha hodisalar uning asarlarida teran ichki kechinmalar ko‘rinishida yuzaga chiqadi. Faynberg she’rlarida Vatan ko‘pincha bevosita madh etilmaydi. Shoir qandaydir insonni g‘ururlantirib yuboradigan shiorlar, balandparvoz so‘zlar o‘rniga kichik hayotiy detallarni asarlarida qo‘llab, ta’sirchan obrazdagi Vatan tushunchasini o‘quvchi ongida gavdalantiradi. Bu fazilat shoir uslubiga xos bo‘lgan noyob xislat bo‘lib, unda yurt tuyg‘usi tashqaridan chiroyli ko‘rinib ko‘zni quvnatadigan dabdaba ko‘rinishida emas, balki ichki ehtiyoj ko‘rinishida talqin etiladi. Inson qayerda bo‘lmasin, uning qalbida bolalik nafasi singgan maskan yashaydi. “Okeanni yorib suzadi kema...” misralari bilan boshlanuvchi she’r ham Faynberg ijodining mana shunday ruhiy qatlamlarini o‘zida mujassam etgan go‘zal asardir. Ushbu maqola Aleksandr Arkadevich Faynbergning yuqorida ta’kidlaganimiz “Okeanni yorib suzadi kema...” satri bilan boshlanuvchi she’ri tahliliga bag‘ishlangan.

Abstract: In the Uzbek poetry of the 20th century, there are many figures who illuminated the human psyche, historical trials, and the concept of the Motherland in a new artistic style. In the literary process of this period, the themes of the individual and

society, man and space, memory and fate were at the center of poetry. Especially by this period, the concept of the Motherland moved beyond the meaning of geographical space to a higher level of interpretation and began to be recognized as a spiritual and spiritual phenomenon. For poets, the Motherland is not the name of the place of birth or its place on the map, but rather a sacred value that shapes the inner world of a person, gives meaning to his existence and fills it. Among the creators who carried out their creative activities in harmony with the philosophical and spiritual direction of such an era, Alexander Arkadyevich Feinberg occupies a special place. His poetry is distinguished by its sincerity, simplicity of the images depicted, and the deep reflection underlying this simplicity. In Feinberg's work The fate of man, childhood memories, the image of his parents, loyalty, love and, above all, the feeling of homeland are among the leading themes. The poet's experience in life, his living in different eras and fully experiencing their souls, and all the events he experienced emerge in his works in the form of deep inner experiences. In Feinberg's poems, the homeland is often not directly praised. Instead of slogans and lofty words that make a person proud, the poet uses small life details in his works, embodying the concept of homeland in a touching image in the reader's mind. This quality is a unique feature inherent in the poet's style, in which the feeling of homeland is interpreted not in the form of a luxury that looks beautiful from the outside and pleases the eye, but in the form of an inner need. Wherever a person is, a place where the breath of childhood lives lives in his heart. "Okeanni The poem that begins with the lines "A ship is sailing through the ocean..." is also a beautiful work that embodies such spiritual layers of Feinberg's work. This article is devoted to the analysis of Alexander Arkadevich Feinberg's poem that begins with the line "A ship is sailing through the ocean..." mentioned above.

Аннотация: В узбекской поэзии XX века много деятелей, которые в новом художественном стиле осветили человеческую психику, исторические испытания и концепцию Родины. В литературном процессе этого периода в центре поэзии оказались темы личности и общества, человека и пространства, памяти и судьбы. Особенно в этот период концепция Родины вышла за рамки географического значения и перешла на более высокий уровень интерпретации, начав признавать себя духовным и духовным феноменом. Для поэтов Родина – это не название места рождения или его место на карте, а сакральная ценность, формирующая внутренний мир человека, придающая смысл его существованию и наполняющая его. Среди творцов, осуществлявших свою деятельность в гармонии с философско-духовным направлением той эпохи, особое место занимает Александр Аркадьевич Файнберг. Его поэзия отличается искренностью, простотой изображаемых образов и глубоким размышлением, лежащим в основе этой простоты. В творчестве Файнберга «Судьба человека» среди главных тем — детские воспоминания, образ родителей, верность, любовь

и, прежде всего, чувство родины. Жизненный опыт поэта, его жизнь в разных эпохах и полное переживание их душ, а также все события, которые он пережил, находят отражение в его произведениях в виде глубоких внутренних переживаний. В стихах Файнберга родина часто не восхваляется напрямую. Вместо лозунгов и возвышенных слов, вызывающих гордость, поэт использует в своих произведениях мелкие жизненные детали, воплощая концепцию родины в трогательном образе в сознании читателя. Это качество — уникальная черта стиля поэта, в котором чувство родины интерпретируется не как роскошь, красивую снаружи и приятную глазу, а как внутренняя потребность. Где бы человек ни находился, в его сердце живет место, где живёт дыхание детства. «Стихотворение Александра Аркадевича Файнберга, начинающееся со строк «Корабль плывет по океану...», также является прекрасным произведением, воплощающим такие духовные пласты творчества Файнберга. Эта статья посвящена анализу упомянутого выше стихотворения Александра Аркадевича Файнберга, начинающегося со строк «Корабль плывет по океану...».

Kalit so‘zlar: Vatan, inson va makon, ma’naviy ildiz, taqdir, Vatansizlik fojiasi, ota-ona хотираси, болалик тимсоли, ҳайот фалсафаси, бадиий образ, қарам-қаршилик, лиризм, садоқат, руҳий изтироб, миллий о‘злик.

Keywords: Homeland, man and space, spiritual roots, destiny, tragedy of statelessness, parental memory, childhood image, philosophy of life, artistic image, contradiction, lyricism, loyalty, spiritual anguish, national identity.

Ключевые слова: Родина, человек и пространство, духовные корни, судьба, трагедия безгражданства, память о родителях, образ детства, философия жизни, художественный образ, противоречие, лиризм, верность, духовные муки, национальная идентичность.

Aleksandr Arkadevich Faynberg o‘zbek adabiyotida chuqur lirizm, falsafiy mushohada va samimiy ichki kechinmalar, iztirobni uyg‘unlashtira olgan ijodkor sifatida alohida o‘rin egallagan. Uning she‘riyatida tashqi soddalik ortida katta ma’naviy bosim, og‘irlik yotadi. Shoir ko‘pincha insonning ichki dunyosi, Vatan bilan bog‘liqligi, ota-ona хотираси, болалиkning beg‘ubor manzaralari va taqdir yo‘lining murakkab ekanligi to‘g‘risida yozadi. Faynbergning nazdida Vatan shunchaki moddiy makon emas, balki insonning ma’naviy ildizi, ruhiy tayanchi, hayot mazmunini belgilovchi asosiy omildir. “Okeanni yorib suzadi kema...” misrasi bilan boshlanuvchi she‘r ana shu falsafiy yondashuvning yorqin namunasi. She‘r boshidanoq okean va kema obrazlari vositasida kenglik, harakat, tanlov va imkoniyat timsollari yaratiladi. Kema-yo‘l, safar va o‘zgarish ramzi. “Bir yelkadan uchta pushta-uch Vatan” satri esa go‘yoki insonning hayotdagi bir necha manzil, bir necha maskanga ega bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

Okeanni yorib suzadi kema,
 Bir yelkanda uchta pushta – uchVatan.
 Odamning Vatani bittadir, demak,
 Bir yerda ko‘kargay tirik jon va tan.
 Ostonaga mahkam mixlagan taqa,
 Uyga keltirolmay ko‘chadan pirog.
 Baxt shunaqa. Asli hayot shunaqa,
 Biz hayotga pirog emasmiz biroq.
 Maysalar va toshlar asraydi tayin
 Otamning izini, onam xokin – gil.
 Tosh shunday qattiqki,
 O‘t shunday mayin.
 Shunday qattiq taqdir,
 shunday bo‘sh ko‘ngil.
 Bolalikdan parvoz qilgan sa‘vajon.
 Sayroqi qushginam,
 Parim – qanotim.
 Biz ketsak hech qachon
 g‘am chekmas Vatan,
 Biz harom o‘lamiz yurtsiz, hayotim.

“Odamning Vatani bittadir, demak, Bir yerda ko‘kargay tirik jon va tan” satrlarida she‘rning asosiy g‘oyaviy markazi mujassamlashtirilgan. Unda inson va Vatan o‘rtasidagi hech qachon uzilmaydigan rishta haqida so‘z boradi. Shoir nazarida insonning haqiqiy ildizi bitta tuproqqa bog‘liq bo‘ladi. Jon ham tan ham aynan shu maskanda har tomonlama yetuklik darajasiga erishadi, “ko‘karadi”. Misrada qo‘llanilgan “ko‘karmoq” fe‘li hayotiylik, rivojlanish, o‘shish ma‘nolarini ifodalab kelmoqda.

She‘rning keying qismida kundalik hayotning oddiy detallaridan foydalaniladi. Ostonada mixlangan taqa-uy, barqarorlik va himoya ramzi. Ko‘chadan uyga olib kirishning imkoni yo‘q deyilgan pirog esa hayot insonga tuhfa etgan ba‘zi ne‘matlar inson irodasiga bo‘ysinmasligidan dalolat beradi. Shoir bu to‘g‘rida shunday deydi: “Baxt shunaqa. Asli hayot shunaqa, Biz hayotga pirog emasmiz biroq.” Bu satrlar orqali hayotning murakkabliklari va ba‘zida bizga xuddi mantiqsizdek ko‘rinib ketadigan qonunlar ochib beriladi. Baxt doim ham qo‘lga kiritilaverilmaydi. Hayot esa insonni o‘z xohishiga ko‘ra shakllantirmaydi. Inson hayotning markazi emas, u hayotning ajralmas bir bo‘lagi xolos. Inson hayotda yashar ekan, u hayot tomonidan berilgan sinovlar, kutilmagan zarbalar asnosida toblanadi.

Shoir ota va ona xotirasini maysalar va toshlar obrazlarini qo‘llash orqali tasvirlab beradi. Maysa, bilganimizdek, yashillik, hayot, davomiylilik, yumshoqlik ramzi

hisoblanadi.tosh esa mustahkamlik,qattiqqo'llik va sinov belgisi."Tosh shunday qattiqki, O't shunday mayin.Shunday qattiq taqdir,shunday bo'sh ko'ngil.Bu yerda antiteza san'atidan foydalanilgan.Bu san'at taqdir qanchalar qattiq bo'lmasin,inson ko'ngli nozik va sezgir bo'lib qolaverishini aytish uchun xizmat qilgan.Tosh va maysa qarama-qarshiligi orqali hayotining ikki qirrali mohiyati yoritib beriladi: og'irlik va noziklik,mustahkamlik va mo'rtlik.

She'ning yakuniy qismi yanada chuqur falsafiylikni o'zida mujassamlashtirgan:"Biz ketsak hech qachon g'am chekmas Vatan,Biz harom o'lamiz yurtsiz hayotim." Bu sartlar asarning eng og'ir va ta'sirchan nuqtasi hisoblanadi.Vatan abadiy va bardavom bo'lib, u alohida bir shaxsga bog'liq emas.Biroq inson bolasi uchun Vatan uning hamma narsa,bor-u yo'g'i,hayotining mazmuni.Vatansizlik esa insonni ma'nan o'ldiradi."Harom o'lamiz" iborasi esa yurtidan uzoqlashgan,undan uzilib qolgan odamning ruhiy fojeaviy holatini keskin va og'riqli tarzda ifodalaydi.

Faynberg ushbu she'rida ortiqcha bezaksiz,sodda va ravon tilda chuqur ma'naviy qatlamlarni yoritib beradi.Asarda foydalanilgan har bitta obraz-kema,taqa,pirog,maysa,tosh,qush-katta falsafiy mazmunni o'zida aks ettiradi.Shoirning kichik detallar vositasida umuminsoniy haqiqatlarni ifodalay olishi ham uning nechog'lik mahoratli so'z ustasi ekanidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda,Aleksandr arkadevich Faynbergning ushbu she'ri inson va Vatan o'rtasidagi uzilmas rishtani teran falsafiy ruhda ochib beradi.She'rni mutolaa qilgan o'quvchi o'z ildizlari,ona yurti haqida chuqur o'y-mulohazaga berilib ketadi.Inson uchun haqiqiy baxt,haqiqiy hayot-o'z tuprog'I bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi.Shoirning fikricha,Vatan abadiy,inson esa o'tkinchi.Ammo insonning ma'naviy butunligi aynan Vatan bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
3. <https://arm.samdchti.uz/library/download/692>
4. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
5. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
6. Aleksandr Arkadevich Faynberg. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.